

URBANIZATSIYANING FALSAFIY MUAMMO SIFATIDAGI TAHLILI

Yaxshiboyeva Muhayo G‘ulom qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi,

Ilmiy rahbar: Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich

Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Urbanizatsiya (lotincha-Urbanus) shaharlar taraqqiyoti bilan bog‘liq hayot tarzini ifodalovchi tarixiy jarayon bo‘lib, aholining hududlar doirasida joylashishida shaharlar soni, ularning katta-kichikligini aniqlash va insoniyat hayotining turli jabhalarida shaharlarning rolini oshirish bilan bevosita aloqador bo‘ladi. Urbanizatsiya darajasining yuqoriligi shaharlar soni va ularda istiqomat qiluvchi aholining ko‘p-ozligi bilan belgilanadi, ishlab chiqarish kuchlarining hududlar bo‘ylab joylashishidagi va ijtimoiy taraqqiyot, madaniyat, fan, san’at kabi sohalardagi ahvol va o‘zgarishlarni ifodalaydi. Maqolada urbanizatsyaning hozirgi kundagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Urbanizatsiya, shaharlar taraqqiyoti, global jarayon, urbanizatsiya darjasи, urbanizatsiya darjasи yuqori mamlakatlар, klassik urbanizatsiya, sharqona urbanizatsiya.

Kirish. Urbanizatsiya hozirgi davrda jahon miqiyosida tobora rivojlanib, kuchaya borayotgan turli xil ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot darajasi turlicha bo‘lgan mamlakatlarni o‘z domiga tortgan urbanizatsiya XVIII asrda ro‘y bergen sanoatdagi inqilob tufayli tobora kuchaya bordi. XIX asrga kelib yer yuzida mavjud bo‘lgan shaharlarda salkam 30 million aholi yashagan bo‘lib, u butun aholi orasida bor-yo‘g‘i 3 foizni tashkil etgan edi. Urbanizatsyaning eng asosiy xususiyati shaharlarning kompleks, ya’ni ularning har tomonlama rivoj topishini taminlash, moddiy va ma’naviy imkoniyatlarini ko‘paytirishi, aholi migratsiyasining kuchayishi, yangi shaharlar vujudga keltirishi va ularni taraqqiyot tomon yo‘naltirishi, yirik shaharlar sonini oshirish, ularda yashaydigan aholi sonini ko‘paytira borishdan iborat.

MUHOKAMA. Ma’lumki, urbanizatsiya - bu shaharlar va shahar aholisining o‘sishi, shahar turmush tarzining keng tarqalish jarayonidir. Shaharlar eng qadimgi davrlarda vujudga kelib, qishloqlar bilan birgalikda aholi manzilgohlarining ikkita asosiy turidan birini tashkil qiladi. Shaharlar tarixan ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Qadimgi davrlarda shaharlar hunarmandchilik, savdo-sotiq, ma’muriy boshqaruv, mudofaa ishlari, diniy ibodatxona va ziyoratgohlar negizida vujudga kelgan. Tarixdan ma’lumki, bir necha ming yillar avval yer yuzida Fiva, Bobil (Vavilon), Ur, Afina, Rim, Iskandariya, Karfagen, Moxenjo-Daro, Samarqand (Maroqand) kabi yirik shaharlar mavjud bo‘lgan.

Ammo haqiqiy shaharlashuv jarayoni qizg‘in sur’atlar bilan faqat XIX asrda, dastlab Yevropada, keyinchalik esa Shimoliy Amerikada boshlanadi. Bu hodisa G‘arb davlatlarida o‘sha paytda ro‘y bergen sanoat inqilobining natijasi bo‘ldi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida urbanizatsiya jarayonlari XX asrning o‘rtalarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalardagi ijobiy o‘rgarishlar tufayli boshlanadi va hozirgi kungacha yuqori sur’atlar bilan davom etmoqda.

Urbanizatsiya jarayoni ilmiy-texnik taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Uning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Shunga ko‘ra, urbanizatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanganligini eslatib o‘tish maqsadga muvofiq. Urbanizatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni turli fanlar o‘rganadi. Bu muammolarni chuqur o‘rganish, tahlil qilish faylasuf, iqtisodchi, geograflar, aholishunoslar, sotsiologlar, me’morlar, ruxshunoslar, tibbiyat xodimlari va boshqa soha vakillarining keng ko‘lamda tadqiqodlar olib borayotganligi shundandir.

Urbanizatsiya jarayonida shaharlar soni, ayniqsa, yirik shaharlar, shu jumladan, aholisi millondan oshgan shahar soni tez ko‘paya boradi. Shahar aglomeratsiyalari (urbanizatsiya kuchaygan ulkan hududlar), megapolislar (aholi manzillari, ayniqsa shaharlar ko‘payishi) aholining qishloqlardan shaharlarga ko‘chib kelish jarayonini kuchaytirildi.

Urbanizatsiya jarayoni jahon ahamiyatiga molik global jarayon sifatida qator umumiylar belgilari va qonuniyatlariga ega jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi.

Urbanizatsiya shaharlarda o‘ziga xos turmush tarzini vujudga keltiradi, odamlar orasidagi munosabatlarga yo ijobiy, yoxud salbiy ta’sir ko‘rsatadi, aholi o‘rtasida turli xil kasb-hunarlar paydo bo‘lishiga olib keladi, kishilarning ijobiy faolligini kuchaytiradi, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi. Uning yetakchi omillaridan biri – fan-texnika taraqqiyoti aholining hududlar bo‘yicha ma’lum darajada tekis joylashishi, shaharlarning moddiy va ma’naviy boyliklaridan jamiyat manfaati yo‘lida to‘laroq foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Fan-texnika taraqqiyoti urbanizatsiya jarayoniga katta ta’sis ko‘rsatishi bilan birga bu jarayonni yanada tezlashtiradi hamda urbanizatsiya darjasini yurori bo‘lgan joylarda istiqbol rejalari uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar va omillar vujudga keltiradi. Muhim sifat o‘rgarishlari milliy iqtisod samardorligini yuksaltirishdagi eng asosiy vosita bo‘lgan sanoat tarmoqlarida mehnat unumdarligini oshirishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Urbanizatsiya jarayonida aholining shaharlardan qishloqlarga ko‘chib kelishi ko‘paya boradi. Bu urbanizatsiyaga xos xususiyatdir. Uning boshqa o‘ziga xos xususiyati - ma’lum aholi manzillarida, ayniqsa yirik shaharlarda turli sanoat korxonalarining, o‘quv yurtlarining, ma’daniyat va san’at obidalarining tez

ko‘payishidir. Ma’lumki, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarining muayyan bir joyda to‘planishi fan-texnika taraqqiyoti tizimi bilan qo‘shilgan holda xalq xo‘jaligi tarkibini o‘zgartirib yuboradi va uni murakkablashtiradi. Sanoat korxonalarining bir joyga jamlanishi qonuniyatining amalga oshishi sanoat taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil faoliyatlar uyg‘unligida shaharlarning tez taraqqiy etishiga sharoit yaratadi hamda bu shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi yetakchi roli va o‘rnini belgilab beradi.

Xalqaro miqiyosda qabul qilingan mezonga ko‘ra, urbanizatsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar qatoriga aholisi 100 mingtadan ortiq bo‘lgan shaharlarda aholining uchdan bir qismi yashaydigan mamlakatlar kiradi.

Urbanizatsiya jarayoni 3 ta asosiy bosqichdan o‘tib rivojlanadi.

I. Shakllanayotgan urbanizatsiya bosqichida shahar aholisining ulushi 50% dan past bo‘lib, yangi shaharlar vujudga keladi, ayrim qishloq joylar shahar manzilgohlari toifasiga o‘tib ketadi. Ayniqsa, yirik shaharlar tez o‘sishni boshlaydi. Bunda eng yirik shaharlar boshqalarga nisbatan ancha ilgarilab ketadi. Eng yirik shaharlarning o‘sishi ayrim hollarda “soxta” urbanizatsiya tarzida, ya’ni shahar chekkalarida qishloqdan ko‘chib kelgan past daromadli aholi uy-joylarining zinchashib borishi ko‘rinishida kechadi. Hozirda Osiyo va Afrikadagi qator rivojlanayotgan mamlakatlar urbanizatsiyaning ana shu bosqichini kechirmoqdalar.

II. Rivojlangan urbanizatsiya bosqichi “millioner” shaharlarning yuqori sur’atlar bilan o‘sishi hamda yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalarning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Shaharlarning jami aholidagi ulushi 50 % dan ortib ketadi, yangi shaharlar deyarli vujudga kelmaydi, mavjud shaharlar esa, ayniqsa, yiriklari tez rivojlanadi, shahar manzilgohlarining tizimlari shakllanib boradi. Urbanizatsiyaning bu bosqichi Sharqiy Yevropa, MDH davlatlari, Lotin Amerikasi, Shimoliy Afrika, Janubiy-g‘arbiy Osiyo, Okeaniyadagi ko‘p mamlakatlarga xos.

III. Yetuk urbanizatsiya bosqichi Yevropaning eng rivojlangan davlatlari, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya, Isroilda kuzatilmoqda. Bunda aholi yirik shaharlarning markazlaridan asta-sekin shahar artofiga ko‘chib boradi, lekin shaharlarda ishslash, o‘qish, turli faoliyat yuritishni davom ettiradi. Natijada shaharlar markazlari, asosan, tadbirkorlik, bank-moliya sektori, boshqaruv sohalarining rivojlanish maskanlariga aylanib, aholi yashash massivlari esa tobora markazdan uzoqlashib boraveradi. Bunday ijtimoiy geografik jarayon suburbanizatsiya deb ataladi. Transport va aloqaning zamonaviy texnologiyasi rivojlangan sari urbanizatsiyaning bu bosqichida shahar iqtisodiyoti tarmoqlari va shahar turmush tarzi qishloq joylarda ham keng tarqalib boradi, natijada shahar va qishloqlardagi yashash sharoiti tobora yaqinlashadi, ya’ni, qishloq joylar rasman o‘zining qishloq maqomini saqlab tursa-da, tub ma’noda shaharlashib ketadi. Shahar bilan qishloq joylar orasidagi

ijtimoiy-iqtisodiy farq va chegaralarning yo‘qolib borish jarayoni rurbanizatsiya atamasi bilan yuritiladi.

Demak, jahon mamlakatlarida urbanizatsiya jarayoni turli bosqichlarda rivojlanib bormoqda va bu, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodoy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Yevropa, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya kabi yirik mintaqalardagi davlatlarda urbanizatsiya ko‘rsatkichi o‘rtacha hisobda 70 foizdan oshgan. Bu borada, ayniqsa, Iskandariya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Avstraliya, Yangi Zellandiya, Argentina, Venesuala kabi shaharlashuv darajasi 90 foizdan yuqori bo‘lgan davlatlar ko‘zga tashlanadi.

Jahon urbanizatsiyasining hozirgi bosqichida xalqaro savdo-iqtisodiy va bank-moliya munosabatlari rivojlanishi, transmilliy korparatsiyalar faoliyati doirasining kengayishi, zamonaviy transport va aloqa tarmoqlari vujudga kelganligi hisobiga ayrim juda yirik shaharlarning ta’sir doirasi joylashgan davlati bilan chegaralanib qolmasdan, boshqa mamlakat va mintaqalar, bazan esa jahonni qamrab olmoqda. Bunday shaharlarning aholisi soni bir necha million kishiga teng bo‘lib, yirik transmilliy korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar qarorgohlari, dunyodagi eng yirik potr, sanoat korxonalari, bank, moliyaviy jamg‘arma va birjalar joylashganligi bilan boshqa shaharlardan ajralib turadilar. Shu toifadagi shaharlarga nisbatan global (yoki jahon) shaharlari atamasi qo‘llanadi. Global shaharlar qatoriga, eng avvalo, Nyu-York, London, Tokio, Shanxay, Gonkong, Parij, Dubay, Singapur kabi savdo-moliyaviy va transport salohiyati o‘ta katta shaharlar kiradi. Global shaharlar safi borgan sari kengaymoqda, ularning ta’sir doirasi esa barcha qit’a va ularning yirik qismlarini qamrab olishga intilmoqda.

XULOSA

Hozirgi kunda urbanizaysiya jahonda aholi soni ko‘payib borgani sari shaharlar ham tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Lekin urbanizatsiyaning rivojlanishi bir qator salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda atrof-muhit ifloslanishining asosiy omili va inson salomatligiga ta’siri jismoniy faolliginining kamayishi, ovqatlanishning noratsional bo‘lishi, sifatsiz mahsulotlarning semirish va diabetga olib kelishi, yurak-qon tomiri kasalliklarining rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Shahar tizimini yaratish orqali o‘z atrofida hayotning qulayligini oshiradigan sun’iy muhit yaratadilar. Ammo bu odamlarni tabiiy muhitdan ajratadi va tabiiy ekotizimlarni buzadi. Urbanizatsiya jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi va ularning bevosita hosilasi bo‘lib, qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning qamrovi keng bo‘lib, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, madaniy, ma’naviy-axloqiy jihatlari bilan tavsiflanadi. Bunda suv ta’midotidagi kamchiliklar, transport tarmoqlariga me’yordan ortiq yuk tushayotgani, shahar turmush tarzi bilan bog‘liq kasalliklarning tarqalishi, jinoyatchilikning ortishi va boshqa muammolar dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Sh.M.Sharipov, V.N.Fedorko, N.I.Safarova, V.A.Rafiqov. Amaliy geografiya-T.; 2017.
2. Akbarjonovich M. A. MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI //IQRO JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 628-631.
3. Abdulaziz M. MIGRATSIYA TUSHUNCHASINING TAHLILI VA UNING MUAMMOLI JIHATLARI //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 32-34.
4. MANSUROV A. Development stages of migration from a historical point of view //UzMU xabarlari. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. – C. 108-111.
5. Akbarjonovich M. A. Historical Analysis of Population Migration //International Journal on Orange Technologies. – 2023. – T. 5. – №. 4. – C. 68-70.